

A POETIC IMAGE IN THE POEMS OF HALIMA KHUDOIBERDIYEVA**Nafosat Muhammadiyeva,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: Xusniddin Xaitov,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'qituvchisi

Annotation: This article provides an analysis of the poetic image in some of the poems of the national poetess of our people Halima Khudoiberdiyeva. An analytical approach to the poet's poems on life topics is given.

Keywords: Poetry, Poetic Image, Analysis, Life, "Boy", "Spring Months", Boat, Spring.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA POETIK OBRAZ**ПОЭТИЧЕСКИЙ ОБРАЗ В СТИХАХ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ****Nafosat Muhammadiyeva,**

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: Xusniddin Xaitov,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqimizning millatparvar shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning ba'zi she'rlaridagi poetik obraz timsollari tahlili keltirilgan. Shoiraning umr mavzusiga oid she'rlariga tahliliy munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, poetik obraz, tahlil, umr, "Bolakay", "Ko'klam oylari", qayiq, ko'klam.

Аннотация: В статье анализируется поэтический образ в некоторых стихотворениях народной поэтессы нашего народа Халимы Худойбердиевой. Дан аналитический подход к стихотворениям поэта на жизненные темы.

Ключевые слова: поэзия, поэтический образ, анализ, жизнь, «Мальчик», «Весенние месяцы», лодка, весна

She'riyatning bosh o'rganish obyekti inson, deymiz. Bu – hech kim inkor etmaydigan sohir haqiqat. Endilikda mushtdekkina yurak she'riyatimiz ko'z tikkan buhronlar maydoni bo'lib qoladi. Yurakda kechayotgan azoblarning ranglarini, nimtatir tabassum to'liqlarini, qiynoqlarning ohanglarini, o'y-xayollar shevasini, bir so'z bilan aytganda, ko'ngil mamlakati she'riyatimizning qon tomiri bo'lib qoladi. Ya'ni, fikr va tuyg'u omuhtaligidan tug'ilgan tafakkur manzaralarini tadqiq etish, kechinmalarning fikrchan suratlarini chizish yetakchi tamoyillardan biridir. Ikkinchidan, ramzlar, timsollar, metaforalar asosida mushohada yuritish va badiiy umumlashmalarda falsafiy teranlikka intilish hozirgi bosqich she'riy madaniyatining galdagi ustuvor xususiyatlaridan hisoblanadi. [1,20]

She'riyatda poetik obrazning faqat bir vosita orqaligina ifoda etilishi, poetik obraz munosabatida yashirin ramziylik kabi qator munosabatlar ko'zga tashlanadi. Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik -badiiy borliqdir. [2, 67] Ushbu fikrlarni Halima Xudoyberdiyeva she'rlari misolida tahlil etamiz.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida turli timsollarni, poetik obrazlarni qo'llaydi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridan parcha keltiramiz:

***Umr oti chopag'on juda,
U yo'ldadir, yo'ldadir har choq.
Biz ham doim uning ustida –
Tutolmaymiz jilovin biroq.***

Bu she'rda umr – poetik obraz, ya'ni umr chopag'on otga qiyoslanadi. Chopag'on ot juda tez yeladi, ya'ni hech to'xtamaydi, insonni to'xtashiga ham imkon bermaydi. Insoniyat doim uning ustida, lekin uning jilovini hech torta olmaydi, to'xtata olmaydi, qancha harakat qilsa ham chopag'on ot bo'ysunmaydi.

***Ot uchadi, ammo yo'q ishi –
Biz ne holda ketib boramiz.
Manzilga yo mevadek pishib –
Yo g'o'r holda yetib boramiz.***

Umr juda tez o'tib boraveradi, lekin inson qanday holda uning ketidan borishidan umrning ishi yo'q. Balki yo'ldagi qattiq toshlarga urilib, ming bor parchalanib, ming bor tirilar yoki yo'lidan faqat gullar chiqar, biroq umr hech qachon insonga qarab o'tirmaydi. O'sha ko'zlangan manzil tomon yelib boraveradi, inson ham manzilga yo mevadek pishib yoki g'o'r holda yetib boradi.

***Bilolmaymiz yiroq yo yaqin –
Qancha qoldi manzilga hali.
Ammo ayon, bizga ham bir kun-
Kelar hisob bermoqning gali.***

Umrning qanchalar tez o'tib borganini hech bila olmaymiz, ya'ni manzilga qancha qolgani ham noma'lum. Lekin hammasi aniq. Bir kun biz ham umrni qanday ishlarga sarflaganimizning hisobini beramiz.

***Ketmoqdamiz, sen beg'am, beso'z-
Yo'lda davom etayotirsan.
Uyg'oqmisan, egardagi do'st?
Va yo uxlab ketayotirsan? [3,191]***

Biz chopag'on ot ustidamiz, manzilga ketyapmiz. Lekin biz manzilimiz yiroq yoki yaqin ekanligini ham bilmay beg'am, beso'zmiz. Ayting-chi, biz uyg'oqmizmi yoki uxlab ketyapmizmi?

Halima Xudoyberdiyeva bu she'ri orqali bizni hayotda uyg'onishimizga, bizga berilgan umrdan unumli foydalanishimizga undayapti. Agar uxlab ketayotgan bo'lsak, uyg'onib chopag'on otning jilovini mahkam tutmog'imiz darkor. Axir bu chopag'on ot hech qachon ortga qaytmaydi-ku. Biz III Renessansni boshlab bergan yoshlarmiz, shuning uchun ham biz Halima Xudoyberdiyeva singari do'stimizni hayotda uyg'onishiga undashimiz lozim. Negaki, biz Halima Xudoyberdiyeva avlodlaridanmiz.

Halima Xudoyberdiyevaning navbatdagi "Ko'klam oylari" nomli she'rida ham umr poetik obraz hisoblanadi.

***Ko'klam-ku, beparvo o'taveradi
Qayta kelaverar yana bir zamon.
Mening umr kemam yelib boradi,
O'sha qish atalmish qirg'oqqa tomon. [4, 42]***

Bu she'rda ko'klam–yoshlik, navqironlik, qish-qarilik, umr esa kema timsolida. Haqiqatan ham, bu misralarda to'g'ri tashbehdan, ya'ni o'xshatishdan foydalanilgan. Hammamiz yoshligimizda jo'shqin, navqiron bo'lamiz. Umr o'tgani sari bizdagi jo'shqinlik tobora kamayaveradi, qarilik qirg'og'iga asta-sekin qadam qo'yaveramiz. Ana shunday kema yelgani sari ko'klam ketidan sekin-sekin qish fasli kirib keladi.

***Bolakay o'ltirar qayiqda,
Goh boqar atrofga jovdirab.
Haydagil, qayiqni hayiqmay,
Bolakay, qolmagil dovdirab. [5, 46]***

Shoiraning "Bolakay" nomli she'rida umr qayiqqa qiyos etilgan. Qayiqqa o'tirgan bolakay atrofga jovdirab boqadi. Shoirasi esa bolakayga qayiqni haydashga hayiqmasligini, qayiqni haydashga hayiqsa, hayotda dovdirab qolishini uqtiradi.

Aytingchi, o'sha bolakay kim? O'sha bolakay – siz, men. Shoiri bu she'rida nafaqat qayiqqa o'tirgan bolakayga, balki bolakay orqali bizga ham hayot darsligini uqtiradi.

She'r yakunida shoiri bolakayni, bizni, oldinga dadil qadam tashlashimizga undaydi, bizga tasalli, dalda beradi:

*Eshkak tort, qulochni kengroq yoz,
Eshkakchim, mardim, biz yo'ldamiz.
Qo'rqma, goh qiynalib qolsa jon
Shamol madorni ketkazib.* [6, 47]

Halima Xudoyberdiyeva aytganidek, qiyin kunlarda jonimiz qiynalib qolsa ham, qo'rqmasligimiz darkor, chunki bu qorong'u kunlar ketidan, albatta, quyosh chiqadi.

*Aqlim tanibmanki, yo'ldaman, yo'lda,
Toblab qo'ydi, ancha yo'llar qiynog'i.
Aniq qancha yo'l bor, hali mo'ljalda,
Mo'ljalsiz yo'llarning yo'qdir sanog'i.* [7, 84]

Halima Xudoyberdiyevaning bu she'ridagi yo'l timsolida umr mavzusi yoritilgan bo'lib, umr poetik obraz hisoblanadi. Halima Xudoyberdiyeva bu she'ri orqali bizga umr mo'ljalini to'g'ri qo'ymog'imiz lozimligini ta'kidlaydi. Mo'ljal bu bizning maqsadimiz. Ya'ni bugungi hayotimizda biz o'z oldimizda aniq bir maqsadni qo'yib olishimiz darkor, negaki mo'ljalsiz umr insonni ancha qiynab qo'yadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodini kuzatar ekanman, shoiraning ko'p she'rlarida umr poetik obraz. Yuqoridagi she'rlaridan ko'rinib turibdiki, umrni chopag'on otga, ko'klamga, qishga, qayiqqa yoki yo'lga qiyoslaydi. Shoiri nafaqat umrni poetik obraz sifatida, balki odamlar orasidan yo'qolayotgan mehrni ham poetik obraz timsolida gavdalandiradi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun Halima Xudoyberdiyevaning "Hovlilar" nomli she'riga murojaat qilamiz:

*Hovlilar atrofiga urmangiz devor,
Ochiq qo'ying eshik, derazalarni.
Ko'zlarimiz ko'rib tursin, atrofada ne bor
Ko'rmoq uchun yaratgan axir ularni.* [8, 147]

Halima Xudoyberdiyeva bu she'rida "hovlilar", "devor" so'zlarini ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llaydi. Hovlilar – insonlar, devor esa ular orasidagi uzilayotgan munosabat, yo'qolayotgan mehr. Ko'rinib turibdiki, muallif bu she'ri orqali xalqimizga oramizdan mehr-oqibat yo'qolmasligini uqtiradi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodini kuzatar ekanmiz, shoiri she'rlarida rang-barang mavzu yetakchilik qilib, insonni umri, vaqt, mehr-oqibat tushunchalarini turli poetik obraz va timsollar vastiasida orqali talqin qilganligining guvohi bo'lamiz. Shu tariqa insoniy tuyg'u va kechinmalar aks etgan she'rlarining jozibadorligi oshishiga erishgan deyish mumkin. XX asr 80-yillar oxiri va mustaqillik yillarida ijod qilgan shoiri aksar she'rlarini poetik obrazlardan samarali foydalanib, satrlarida umuminsoniy tuyg'ularni aks ettirgan deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 2007. 260 b.
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent:, Fan nashriyoti. 2007. 242 b.
3. Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. – Toshkent:, O'zbekiston. 2012. 728 b.
4. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – Toshkent:, G'afur G'ulom nashriyoti. 2018. 423 b.